

O‘zbekiston
Metama’lumot
Jini koeffitsiyenti

Ishlab chiqilgan sana: 29.05.2020 yil

Oxirgi yangilangan sana: 14.09.2021 yil

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi.

Ushbu Qonunning rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2017-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funktsiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida [Nizom](#)”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas’ul, shuningdek ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubi bilan ta’minlash vazifalarini bajaradi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma’lumotlarini yig‘ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma’lumotlarini yig‘ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralari qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud

muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizomda, Davlat statistika qo'mitasi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega ekanligi hamda olingan statistik ma'lumotlarning maxfiylikini va davlat sirlariga ega bo'lgan statistik ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Jini koeffitsiyenti ko'rsatkichlarini shakllantirish bilan Markaziy apparatda 9 nafar xodim va hududiy statistika boshqarmalarining Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari bo'limlarida 9-14 nafar xodim shug'ullanadi.

Xodimlar soni aholi turmush darajasi statistikasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli.

Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi bo'yicha xodimlarni o'qitish doimiy ravishda olib boriladi. Jumladan, boshqarma xodimlari:

Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida, shuningdek, xalqaro statistika tashkilotlarining boshqa seminarlarida o'z malakalarini oshiradilar.

Boshqarmada kompyuterlar soni yetarli bo'lib, har bir xodim alohida kompyuter bilan ta'minlangan. Barcha kompyuterlar lokal tarmoqqa ulangan, shuningdek, internet tarmog'iga kirish imkoniyatiga ega.

Moliyaviy mablag'lar statistika ishlari dasturi doirasida taqdim etiladi va ushbu dasturda nazarda tutilgan statistika ishlarini bajarish uchun yetarlidir.

1. Beg'arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy printsiplari, jumladan beg'arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo'ysunadi.

Mazkur statistik ma'lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmagan va kasbiy mustaqillik to'liq ta'minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e'tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslari, o'quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta'minlash orqali ta'minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o'quv kurslarida ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e'lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda

rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistika ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy printsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistika ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo'mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi ("Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita raisi, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistika ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab

chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konseptsiya va tushunchalar

2.1.1 Konseptsiya va tushunchalar

Jini koeffitsiyentini hisoblash metodologiyasi Jahon Banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YeIK) tomonidan tavsiya etilgan xalqaro standartlarning talablariga javob beradi.

Jini koeffitsiyentini hisoblashning uslubiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2010 yil 24 dekabrda 18-sonli qarori bilan tasdiqlangan «*Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish bo'yicha uslubiy nizom*» hisoblanadi.

Davlat statistika qo'mitasi Xalqaro standartlar talablariga moslashtirilgan uslubiyatni qo'llagan holda uy xo'jaliklari umumiy daromadlarini hisoblashni 2000 yildan beri Jahon Bankining tavsiyalariga muvofiq ravishda amalga oshiradi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini qamrab oladi.

Tanlama kuzatuv to'plami uy xo'jaliklari bosh to'plamining bir qismini (0,2%) tashkil etadi. Jini koeffitsiyenti alohida shaxslar yoki uy xo'jaliklari daromadlarining haqiqiy taqsimlanishini mutloq tenglikdan chetlanish darajasini Koeffitsiyent (aholi daromadlarini taqsimlanishida tengsizlik darajasi) quyidagilarni o'z ichiga oladi pul daromadlari:

ish haqi;

tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan tushumlar;

ijtimoiy to'lovlar (pensiylar, stipendiyalar, nafaqalar va boshqa to'lovlar);

foizlar, dividendlar va mulkdan olingan boshqa daromadlar;

boshqa pul tushumlari.

Natura shaklidagi tushumlar qiymati:

natura shaklida kelib tushgan oziq-ovqat mahsulotlari qiymati;

natura shaklidagi kelib tushgan nooziq-ovqat tovarlari va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Statistik qamrovdan istisnolar mavjud emas.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Mavjud emas.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Jini koeffitsiyentini hisoblashda uy xo'jaliklari ma'lumotlar bazasidan foydalaniladi.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Yo'q.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Ijtimoiy jarayonlarning aholi turmush darajasiga ta'sirini o'rganish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha choralarni ishlab chiqishda uy xo'jaliklari kuzatuv natijalari asos bo'ladi. Shuningdek, kuzatuv natijalari aholining kam ta'minlanganlik ko'rsatkichlarini, iste'mol narxlari indeksini hisoblashda, milliy hisoblar tizimida uy xo'jaliklari sektori hisoblarini tuzishda va boshqa iqtisodiy-statistik hisob-kitoblarda ishlatiladi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Jini koeffitsiyenti bo'yicha ma'lumotlar uy xo'jaliklarni tanlama kuzatuv asosida shakllantiriladi. Kuzatuv uy xo'jaliklari a'zolarining bevosita so'rov o'tkazish orqali hamda kunlik xarajatlarni

xisobga olish kundaligini to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

3. Aniqlik va ishonchlik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Uy xo'jaliklari kuzatuv O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida tanlama usulda o'tkaziladi. Kuzatuvlar tanlab olingan uy xo'jaliklarining unda ixtiyoriylik tamoyili asosida ishtirok etishi orqali tashkil etiladi. Tanlovga tushgan uy xo'jaliklarida kuzatuv bir oy davomida o'tkaziladi va shundan so'ng boshqa uy xo'jaligiga almashtiriladi. Uy xo'jaliklari tanlovi har bir hududda yashovchi aholi sonidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Tanlovni amalga oshirishdan avval, tanlov birligi hisoblangan uy xo'jaliklari soni respublikaning hududlari kesimida oldindan taqsimlanadi. Har bir hudud bo'yicha uy xo'jaliklari tanlovi, shahar va qishloq joylari kesimida amalga oshiriladi. Uy xo'jaliklarining tanlovi ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda mahalla/qishloqlar tanlab olinadi va bu jarayon har olti oyda, yilda ikki marta takrorlanadi. Har bir mahalla/qishloqning tanlovga tushish ehtimoli, ularda mavjud bo'lgan uy xo'jaliklari (yoki aholi) soniga bog'liq. Uy xo'jaliklari tanlovi tanlovning ikkinchi bosqichida amalga oshiriladi. Tanlab olingan mahalla/qishloqlar bo'yicha barcha uy xo'jaliklarining ro'yxatini (uy xo'jaligi boshlig'ining ismi va familiyasi, manzili) hududiy statistika boshqarmalari belgilangan tartibda, elektron ko'rinishda shakllantiradilar. Davlat statistika qo'mitasi ushbu ro'yxat asosida uy xo'jaliklari tanlovining ikkinchi bosqichini amalga oshiradi va kelgusi olti oy davomida kuzatuv o'tkazishda foydalaniladigan uy xo'jaliklari ro'yxatini shakllantiradi. Tanlovning barcha bosqichlari Davlat statistika qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Uy xo'jaligi tanlangandan so'ng intervyuyer bevosita uy xo'jaligida kuzatuv o'tkazadi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Tanlama metodikasiga muvofiq, respublika bo'yicha kuzatuv ma'lumotlarining reprezentativligini choraklik ma'lumotlar ta'minlaydi. Hududlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni tayyorlashda yillik ma'lumotlardan foydalanish lozim. Ma'lumotlar hisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi Davlat statistika ishlari dasturi tomonidan tartibga solinadi. Choraklik ma'lumotlar chorak yakunlangandan keyingi oyning 25 sanasigacha, yillik ma'lumotlar hisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Hududiy bo'linmalardan olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi, nazoratdan o'tadi. Tasniflash hamda nazoratda aniqlangan xato va kamchiliklar albatta respondentlar bilan yana bir bor aniqlashtirilib olinadi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

Hududiy bo'linmalardan olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi, nazoratdan o'tadi. Tasniflash hamda nazoratda aniqlangan xato va kamchiliklar albatta respondentlar bilan yana bir bor aniqlashtirilib olinadi.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Yo'q.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Yo'q.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Yo'q.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Agar ilgari e'lon qilingan ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlansa, keyingi nashrlarda bu ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Dastlabki choraklik va yillik ko'rsatkichlar yillik hisobot ma'lumotlari bilan hisobot davridan 6 oydan keyin taqqoslanadi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Turmush darajasi: hisob-kitoblar respublika bo'yicha har chorakda, hududlar bo'yicha har yili amalga oshiriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish va yillik ma'lumotlarni tarqatish Davlat statistika ishlari dasturi asosida ma'lumotlarni e'lon qilish taqvimiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Yo‘q.

4.2.2 Vaqt bo‘yicha qiyosiylik

Jini koeffitsiyenti bo‘yicha dinamik qatorlar 2013- yildan mavjud bo‘lib Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-saytida (<http://stat.uz/>) taqdim etilgan.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o‘rtasidagi qiyosiylik

Yo‘q.

4.3 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqish

4.3.1 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqish jadvali

Yillik statistik ko‘rsatkichlar ma‘lumotlari davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan muddatlarda yangilanadi. Yillik ma‘lumotlar may oyida aniqlashtiriladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko‘rib chiqilgan ma‘lumotlarni aynan shu toifasi bo‘yicha belgilash

Jini koeffitsiyenti ma‘lumotlari qayta kurib chiqilmaydi. Yakuniy ma‘lumotlar tarqatiladi.

4.3.3 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqishni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha olingan natijalarni tarqatish

Yo‘q.

5. Qulayligi

5.1 Ma‘lumotlar

5.1.1 Statistik ma‘lumotlarni taqdim etish

Jini koeffitsiyent to‘g‘risidagi ma‘lumotlar foydalanuvchilarga “Aholining turmush darajasi va farovonligi” tahliliy ma‘lumotlari orqali onlayn va elektron shaklda taqdim etiladi.

5.1.2 Ma‘lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Mavjud emas.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Jadval ko‘rinishda, foydalanuvchilarning so‘roviga muvofiq.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

“Jini koeffitsiyent” bo‘yicha ma‘lumotlari www.stat.uz saytida e‘lon qilinadi va har yili yangilanadi.

5.1.3. Ma‘lumotlarni e‘lon qilish jadvali

Rasmiy statistika taqvim www.stat.uz rasmiy saytida e‘lon qilingan.

5.1.4 Bir vaqtning o‘zida e‘lon qilish

-

5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma‘lumotlarni tarqatish

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizom va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma‘lumotlar foydalanuvchilarga ularning so‘rovlari bo‘yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning so‘rovlari bo‘yicha bosma yoki elektron jadval ko‘rinishida, statistik to‘plamlar, byulletenlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek, tomonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi to‘g‘risidagi kelishuvlarga asosan amalga oshiriladi.

5.2 Metama‘lumotlar

5.2.1 Konseptsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma‘lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi hujjatlar va ma‘lumotlarni tarqatish

Davlat statistika qo‘mitasining veb -saytining INERAKTIV XIZMATLAR saxifasida USLUBIY MATERIALLAR bo‘limida, statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish va hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomlar joylashtirilgan.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan rasmiy nashrlarda statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun mas'ul xodimlar bilan aloqa bog'lash bo'yicha manzillar (pochta, telefon, faks, elektron manzillar va h.k.) ko'rsatib qo'yiladi.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Statistika kuzatuvlarining vositalarini (shakllari va anketalari) takomillashtirish.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Yo'q.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Yo'q.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko'makka talab – Qisqa muddatli

Yo'q.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko'makka talab – O'rta muddatli

Yo'q.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Madaminov Umid Kanjaboevich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2028166
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	u.madaminov@stat.uz